

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI «TALABALAR TURAR JOYI» TO‘G‘RISIDAGI**  
**NIZOMI**

**I. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu «Nizom» 2005 yil 9 apreldagi «Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari fani bo‘yicha» maxsus metodologik komissiya qarori hamda OO‘MTV ning 2005 yil 18 maydagi 107-sonli «Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘lim muassasalarida milliy istiqlol g‘oyasini talabalar ongiga singdirishda ta‘lim jarayoni, ma‘naviy - ma‘rifiy faoliyat va ta‘limdan tashqari ishlarni yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risida»gi buyrug‘i asosida ishlab chig‘ildi.

2. Institutga uzoq shahar va viloyatlardan kelib ta‘lim olayotgan talabalarni vaqtincha yashash joyi bilan ta‘minlash maqsadida «Talabalar turar joyi» tashkil etiladi.

3. Talabalar turar joyi boshqaruvi – mazkur Nizom asosida institut rahbariyati tomonidan shakllantiriladi hamda o‘z faoliyati yo‘nalishiga, ish rejasi va dasturiga, maxsus muhriga, shtat birligiga ega bo‘lib, Talabalar turar joyining ma‘muriy, xo‘jalik, ma‘naviy-axloqiy tarbiya ishlarini boshqaradi.

4. Talabalar turar joyida talabalarning yashashi, o‘z ustida mustaqil ishlashi, dam olishi hamda sport, san‘at va boshqa klublarda qatnashishi uchun sharoitlar yaratiladi.

5. Talabalar turar joyining moddiy-texnik ta‘minoti, uni kapital va joriy ta‘mirlash, binodagi qattiq va yumshoq krovat, mebel, xona jihozlari (ko‘rpa-to‘shak, yopinchiqlar, sochiqlar va boshqalar), texnika vositalarini saqlash, ta‘mirlash, hududni obodonlashtirish, tozaligini ta‘minlash, kommunal-xo‘jalik xizmatlari (issiq va sovuq suv ta‘minoti, kanalizatsiya, issiq suv quvurlarini ta‘mirlash) va boshqa shart-sharoitlar institut tomonidan ta‘minlanadi.

6. Talabalar turar joyi olish uchun fakultet dekani yoki ma‘naviy-axloqiy tarbiya ishlari bo‘yicha prorektor nomiga ariza yozadi va unga pasport nusxasini ilova qiladi. Mazkur ariza o‘rnatilgan tartibda ko‘rib chiqilgach, talabalar turar joylariga joylashtirish bo‘yicha ma‘naviy-axloqiy tarbiya ishlari bo‘yicha prorektor yoki dekan va kasaba uyushmasi ruxsati bilan berilgan order asosida amalga oshiriladi.

7. Talabalar turar joylarida istiqomat qiluvchi talaba va aspirantlar O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan ta‘sis etilgan qoidalar asosida vaqtincha ro‘yxatga olinadilar. Ro‘yxatga olish ishlari Boshqaruv raisi (mudir) va pasportist(ka) tomonidan amalga oshiriladi.

8. Tarbiyaviy-madaniy, sport-sogʻlomlashtirish ishlari va Talabalar turar joyida yashovchilarga maishiy xizmat koʻrsatishni tashkil etish borasidagi umumiy rahbarlik institut rektori zimmasiga yuklatiladi.

9. Talabalar turar joylariga institut ishchi-xizmatchilari, begonalar, oʻquvchi hamda talaba va aspirantlarning oila aʼzolarini joylashtirish qatʼiyan man etiladi.

10. Talabalar turar joylarida yashash uchun toʻlov miqdori institut buyrugʻi bilan belgilanadi.

## **II. Talabalar turar joyida yashovchilarning huquq va majburiyatlari**

11. Talabalar turar joyida yashovchilarning huquqlari quyidagilardan iborat:

- oʻziga ajratilgan xonada oʻrnatilgan ichki tartib-qoidalarga rioya qilgan holda yashash;
- Talabalar turar joyi binolaridagi madaniy-maishiy jiqozlardan foydalanish;
- foydalanish uchun yaroqsiz holga kelgan jihoz, mebel va boshqa mulklarni taʼmirlash, yangilash hamda maishiy xizmatlardan foydalanishda yuzaga kelgan kamchiliklarni bartaraf etishni soʻrab rahbariyatga murojaat qilish;
- Talabalar turar joylarida oʻtkaziladigan ommaviy madaniy, sport va tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etish;
- yaratilgan shart-sharoitlar boʻyicha institut maʼmuriyatiga takliflar bilan chiqish;
- «Talabalar kengashi»ning aʼzolarini saylash va unga saylanish;
- «Talabalar kengashi» orqali Talabalar turar joyining maishiy taʼminotini takomillashtirish, tarbiyaviy ishlar va madaniy hordiqni tashkil etish, yashash xonalarini jihozlash boʻyicha masalalarni hal etishda ishtirok etish.

12. Talabalar turar joyida yashovchilarga quyidagi majburiyatlar yuklanadi:

- ichki tartib-qoidalarga qatʼiy amal qilish;
- maʼmuriyat bilan tuzilgan oʻzaro masʼuliyat toʻgʻrisidagi shartnoma qoidalariga rioya qilish;
- navbatchilik jadvaliga binoan xonalarda, qavat va kirish joylarida navbatchilik qilish, dam olish joylarida namunali tozalikni taʼminlash;
- gaz va elektr asboblaridan unumli foydalanish va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish;
- yashab turgan xona va umumiy foydalanish joylarini har doim saranjom tutish;
- xonadoshlar hamda Talabalar turar joyida yashayotgan talaba yoki oʻquvchilar bilan samimiy va ahil munosabatda boʻlish;
- qavat va sektsiya sardorlari, Talabalar kengashi raisi topshiriqlarini bajarish;
- Talabalar turar joyi va xonadagi mavjud hamma jihozlarni (shifoner, krovat, tumbochka, stol, stul va h.k.) namunali darajada tutish;

- Talabalar turar joyi va xonadagi mebellarni, deraza va unga qo'yilgan oynalarni sindirmaslik, eshik qulflarini Talabalar turar joyi mudirining ruxsatisiz almashtirmaslik;

- umumiy foydalanish joylariga o'rnatilgan yoritgichlar, elektr va gaz plitalarini ehtiyot qilish, yuvinish xonasi, oshxona hamda ma'naviyat va ma'rifat xonalari jihozlaridan to'g'ri foydalanish;

- elektr va gaz plitalaridan tejab foydalanish, qo'lbola elektr isitgich asboblardan foydalanmaslik;

- jadval bo'yicha navbatchilik qilish, belgilangan muddatda qavatni hamda umumiy foydalanish joylarini (hojatxona, yuvinish xonalari, ovqat pishirish xonasi va boshqalar) tozalash, maishiy chiqindilarni maxsus belgilangan joylarga o'z vaqtida chiqarib tashlash;

- Talabalar turar joyida o'tkaziladigan hashar, ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlarida muntazam, faol qatnashish;

- Talabalar turar joyidan uzoq muddatga ketishdan oldin (yozgi va qishki ta'tilga, dam olishga, amaliyotga) xonadagi jihozlar va xona kalitini Talabalar turar joyi boshqaruvi raisi (mudir)ga topshirish.

- bitiruv malakaviy ishlarini tugallagandan so'ng yoki institutdan chetlashtirish to'g'risida buyruq chiqarilgan taqdirda xona va undagi jihozlarni bir hafta muddat ichida Talabalar turar joyi boshqaruvi raisi (mudir)ga topshirish.

13. Talabalar turar joyida yashovchilarga quyidagilar man etiladi:

- Talabalar turar joyi boshqaruvi raisi (mudir)ning ruxsatisiz bir xonadan ikkinchi xonaga ko'chib o'tish;

- yashash xonasida kir yuvish;

- xonadagi anjomlarni boshqa xonaga ruxsatsiz ko'chirish;

- xonadagi elektr tarmoqlarini o'z xohishicha o'zgartirish va qo'shimcha yoritqich o'rnatish;

- devorlarga turli rasmlar chizish, har xil qog'ozlar yopishtirish;

- ovoz chiqaruvchi qurilmalar ovozini xona tashqarisidan yuqori eshitilishi, yuqori ovozda ashula aytish va musiqa asboblarni chalish;

- elektr isitgichlar va kerosindan foydalanib ishlaydigan asboblarni ishlatish;

- begona odamga tunab qolish uchun joy berish;

- spirtli ichimliklar va giyohvand moddalarni iste'mol qilish, saqlash, sotish taqiqlanadi.

14. Talabalar turar joyi hayotida faol ishtirok etayotgan, namunaviy xulqli talaba yoki o'quvchilar quyidagi tartibda rag'batlantiriladilar:

- minnatdorchilik bildiriladi;

- maqtoov yorlig'i;
- esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi;
- moddiy rag'batlantiriladi.

15. Talabalar turar joyi ichki tartib-qoidalarini buzganlarga nisbatan quyidagi choralar qo'llaniladi:

- ogohlantiriladi;
- talaba yoki o'quvchining ota-onasi bilan suhbat o'tkaziladi;
- hayfsan e'lon qilinadi;
- Talabalar turar joyidan chiqariladi;
- institut rektori (direktori)ga talaba yoki o'quvchilar safidan chiqarish bo'yicha taklif kiritiladi;
- talabalar o'z turar joylarida foydalanib kelayotgan mol-mulkka bevosita etkazilgan haqiqiy zararni, agar zarar uni bartaraf etish mumkin bo'lmagan kuchlar, noreal xo'jalik tavakkalchiligi oqibatida, oxirgi zarurat yoki zaruriy mudofaa natijasida kelib chiqqan bo'lmasa to'lashi shart.

### **III. Institut ma'muriyatining majburiyatlari**

16. Rektor, prorektorlar, dekanlar, komendantlar Talabalar turar joyi tozaligi, sanitariya holati, Talabalar turar joyida yashovchilarning daxlsizligi va tarbiyaviy ishlar samaradorligi uchun mas'uldirlar.

17. Institut ma'muriyatining majburiyatlari:

- Talabalar turar joyida sanitariya va gigiena qoidalariga rioya etilishini ta'minlash;
- Talabalar turar joyini tegishli choynab, yostiql jildlari va boshqa zarur anjomlar bilan ta'minlash;
- Talabalar turar joyida o'tkaziladigan tadbirlar, madaniy-ommaviy ishlar hamda sport musobaqalarini o'tkazishni ta'minlash;
- Talabalar turar joyini joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshirish;
- Talabalar turar joyida yashash sharoitlarini tegishli me'yorlar asosida jihozlar bilan ta'minlash;
- Talabalar turar joyida faoliyat yurituvchi shaxslarni zaruriy ish o'rinlari bilan ta'minlash;
- Talabalar turar joyida yuzaga kelgan maishiy xizmat tizimidagi kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish va qayta tug'ilmasligining oldini olishdan iborat.

18. Institut ma'muriyati har bir Talabalar turar joyiga alohida mas'ul etib, Talabalar turar joylari Boshqaruv raisi (mudir)ni tayinlaydi.

#### **IV. Talabalar turar joyi faoliyatini va boshqaruvini tashkil etish**

19. Talabalar turar joyining o'rnatilgan me'yoriy talablar asosida faoliyat yuritishi uchun shaxsan rektor (direktor) mas'uldir.

20. Talabalar turar joyida o'quv zali, ma'naviyat va ma'rifat xonasi, dam olish (ota-onalar) xonasi, gigiena xonasi, tarbiyachilar xonasi, oshxona, hojatxona, yuvinish xonasi, dush tashkil etilishi lozim.

21. Talabalar turar joyida kutubxona filiali tashkil etiladi va reja asosida o'z faoliyatini olib boradi.

22. Talabalar turar joyidagi oshxonalar gaz yoki elektr plitalari, stol-stul, suv tarmog'i, sanitariya jihozlari bilan ta'minlanishi hamda yong'in xavfsizligi talablariga to'liq javob berishi shart.

23. Talabalar turar joyidan foydalanish, me'yoriy—axloqiy tartiblarga rioya qilinishini ta'minlash, talaba va o'quvchilarga qulay sharoitni yaratish maqsadida Talabalar turar joyi Boshqaruvi tashkil etiladi. Boshqaruv tarkibi va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar institut shtat birliklari doirasida shakllantiriladi. Namunaviy shtat birligida ko'zda tutulmagan xodimlar jamoatchilik asosida ishga jalb etiladi. Uning tarkibi quyidagilardan iborat bo'ladi:

- boshliq (mudir);
- xo'jalik ishlari bo'yicha mudir muovini - (Boshliq o'rinbosari);
- Talabalar Kengashi raisi (Boshliq o'rinbosari);
- pedagog-tarbiyachilar va boshqalar.

24. Talabalar turar joyi Boshqaruvinini tashkil etish, olib borilayotgan ishlarni muvofiqlashtirish va nazorat qilish mas'uliyati rektor (direktor) zimmasiga yuklatiladi.

25. Talabalar turar joyi boshqaruvinining shtatlar birligini ta'minlash, ish haqini belgilash, xodimlarni ishga jalb etish, ular tomonidan o'z xizmat vazifalarining bajarilishini nazorat qilish, Talabalar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berish va ijtimoiy himoya qilish hamda istiqomat qiluvchi Talabalar o'rtasida tashkiliy, xo'jalik, huquqiy-tarbiyaviy ishlarni olib borish mas'uliyati tegishli prorektorlar (direktor o'rinbosarlari) tomonidan amalga oshiriladi.

26. Talabalar turar joyi boshqaruvi tarkibidagi barcha xodimlar rektor (direktor) tomonidan tayinlanadi. Boshqaruvning yillik ish rejasi institutda Ilmiy kengash tomonidan tasdiqlanadi va har yarim yilda o'z faoliyati bo'yicha Ilmiy kengash (Ilmiy-pedagogik kengash)ga hisobot beradi.

**Eslatma:** Talabalar turar joylari joylashishi yaqin bo‘lib, ularda yashovchilar soni bir ming va undan ortiq bo‘lsa «Talabalar shaharchasi» direktsiyasi tashkil etilishi mumkin. Uning faoliyati institutga ajratilgan mablag‘lar va byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan qoplanadi.

#### **V. Talabalar turar joyi boshqaruvi raisi (mudir)ning vazifalari**

27. Boshqaruv raisi (mudir) – Talabalar turar joyi faoliyatini tashkil etishning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha umumiy rag‘barlikni olib boradi.

28. Boshqaruv raisi (mudir) lavozimiga tayinlanadigan shaxs tajribali bo‘lishi shart.

Uning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Talabalar turar joyining faoliyatini tashkil etish dasturi va rejasini ishlab chiqadi;
- joriy yilda olib borgan faoliyati bo‘yicha har yarim yilda institut Ilmiy kengashi hisobot beradi;
- Talabalar turar joyi boshqaruvidagi lavozimlarga shtat birliklari asosida xodimlar va ishchilarni tanlaydi, ishga qabul qilish va ishdan ozod etish bo‘yicha o‘z tavsiyalarini rahbariyatga rasmiylashtirish uchun taqdim etadi;
- talabalarni xonalarga joylashtiradi;
- sanitariya me‘yorlarining bajarilishini ta‘minlaydi;
- o‘rinlarni talabaning jinsi, fakultetlar bo‘yicha taqsimotini belgilaydi, ular haqidagi umumiy ma‘lumotlar banki, axborotlar, statistik jadvallarni tayyorlaydi, ushbu ma‘lumotlar bilan institut rahbarlarini doimo xabardor etib turadi;
- Talabalar turar joyining moddiy-texnik ta‘minotini tahlil etadi, ehtiyoj va talablar asosida zarur materiallar, jihozlar uchun buyurtmalar beradi;
- talabalarning yashashi, dars tayyorlashi va dam olishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi;
- pasport tizimi, Talabalar turar joyiga kirib-chiqish qoidalarining qat‘iy bajarilishini ta‘minlaydi;
- pedagog-tarbiyachilar faoliyatini tashkil etadi;
- doimiy navbatchilikning uzluksizligini ta‘minlaydi;
- haftalik yig‘ilishlar, tadbirlarda ishtirok etadi, Talabalar turar joyiga tegishli bo‘lgan masalalar bo‘yicha huquq-tartibot organlari, tashkilotlar, muassasalar bilan hamkorlikda ish olib boradi;
- nazoratchilar guruhi faoliyatini tashkillashtiradi hamda «Mahalla posbonlari», «Yosh posbonlar» bilan hamkorlikda ishlashni ta‘minlaydi;
- Talabalar bo‘sh vaqtini foydali mehnat bilan to‘ldirishni amalga oshiradi.

## **VI. Xo‘jalik ishlari bo‘yicha mudirning vazifalari**

29. Xo‘jalik ishlari bo‘yicha mudir faoliyatini bevosita boshqaruv raisi (mudir) yo‘naltiradi, muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi.

30. Xo‘jalik ishlari bo‘yicha mudir lavozimiga tayinlanadigan shaxs oliy ma‘lumotli va kamida 3 yillik ish stajiga ega bo‘lishi lozim.

31. Uning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Talabalar turar joyi va uning hududidagi xo‘jalik ishlarini olib boradi;
- talabalarni zarur bo‘lgan qattiq va yumshoq mebellar, xona jihozlari, yuvinish vositalari bilan ta‘minlaydi;
- mavjud xo‘jalik muammolari va kamchiliklarni boshqaruv raisi (mudir) bilan birgalikda bartaraf etadi;
- Talabalar turar joyi hududini obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish, sanitariya ishlarini amalga oshiradi;
- Talabalar turar joyining sovuq va issiq suv, gaz va elektr energiyasi bilan ta‘minlanishini nazorat qiladi, yuzaga kelgan muammolar bo‘yicha tegishli tashkilotlari bilan bog‘lanadi, kamchiliklarni bartaraf etadi;
- xona jihozlari (choyshablar, yostiq jildi, ko‘rpa-to‘shak, sochiqlar)ni davriy ravishda almashtirilishini amalga oshiradi;
- tegishli hududdagi ekologiya, atrof-muhit tozaligi, daraxtlarni parvarishlash, ko‘kalamzorlashtirish ishlarini olib boradi;
- tegishli hududdagi elektr tarmoqlari, yoritgichlar ishlashini ta‘minlaydi;
- xavfsizlik va yong‘in xavfsizligiga oid ishlarni amalga oshiradi;
- sanitar xonalar (gigiena xonasi, dush, hojatxona) faoliyatini nazorat qiladi;
- xo‘jalik sohasida xizmat qiluvchi texnik xodimlar - farrosh, vaxtyor, elektrik, santexnik, bog‘bon va boshqalarning faoliyatini tashkil etadi, nazorat qiladi.

## **VII. Jamoatchilik asosida jalb etilayotgan pedagog-tarbiyachi faoliyatini tashkil etish**

32. Pedagog-tarbiyachi institut rektori buyrug‘i asosida Talabalar turar joyi boshqaruviga jalb etiladi.

33. Pedagog-tarbiyachi vazifasiga jalb etiladigan shaxs oliy pedagogik ma‘lumotli va kamida 5 yillik ish stajiga ega bo‘lishi lozim.

34. Pedagog-tarbiyachi ma‘naviy-axlohiy tarbiya samaradorligi uchun mas‘uldir. Pedagog-tarbiyachilarning ish vaqti smena asosida tashkil etiladi.

35. Pedagog-tarbiyachilarning ish rejasi va dasturini ma'naviyat va ma'rifat masalalari bo'yicha prorektor (ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari) tasdiqlaydi va ularning faoliyatini muvofiqlashtiradi, yo'naltiradi hamda boshqaradi.

36. Pedagog-tarbiyachilar o'z faoliyatini «Talabalar turar joyi pedagog-tarbiyachilarining huquqiy maqomi va qoidalari» to'g'risidagi hujjat asosida amalga oshiradi.

37. Pedagog-tarbiyachining vazifalari:

- talabalarining bo'sh vaqtlarida talabalar ongi va qalbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish bo'yicha dolzarb ma'naviy, huquqiy, axloqiy mavzular bo'yicha davra suhbatlari, treninglar va boshqa turli tadbirlarni tashkil etadi;
- talabalar uchun sport-sog'lomlashtirish sektsiyalari faoliyatini tashkil qiladi;
- sotsiologik-psixologik so'rovlar o'tkazadi;
- ijtimoiy-axloqiy muhitni nazorat qiladi;
- talabalarining o'zini-o'zi boshqarish jarayonini tashkil etadi, ularning ishini muvofiqlashtiradi va boshqaradi;
- milliy, umumbashariy qadriyatlarni targ'ib etadi;
- sport (futbol, basketbol, shaxmat, shashka, stol tennisi va boshqa) turlari bo'yicha musobaqalar tashkil etadi;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarga moddiy yordamlar berish bo'yicha rahbariyatga takliflar kiritadi.

### **VIII. Talabalar turar joyida talabalarining o'zini-o'zi boshqaruvini tashkil etish**

38. Talabalar turar joyida talabalarining o'zini-o'zi boshqaruvini shakllantirish va amalga oshirish maqsadida «Talabalar kengashi» (keyingi o'rinlarda «Kengash») tashkil etiladi.

39. Kengash tarkibi umumiy ovoz berish orqali, Talabalar tomonidan saylanadi. Talabalar boshqaruvi a'zolari «yaxshi» va «a'lo» baholarga o'qiydigan, Talabalar hayotini har tomonlama yaxshi biladigan, mustaqil fikrlovchi hamda jamoat ishlarida faol ishtirok etuvchi shaxslar bo'lishi lozim.

40. Talabalarining o'zini-o'zi boshqaruvi demokratik asoslarga quriladi. Kengashning faoliyatini yo'naltirish, muvofiqlashtirish ishlarini pedagog tarbiyachilar amalga oshiradi.

41. Kengash raisi bir yil muddatga saylanadi.

42. Kengashning ish rejasi va dasturi kengash raisi tomonidan ishlab chiqilib, boshqaruv a'zolari, pedagog-tarbiyachilar bilan muhokama qilinadi hamda o'rnatilgan tartibda rektor (direktor) tomonidan tasdiqlanadi.

43. Har bir bo'linma va qavatda sardorlar saylanadi. Sardorlar yashovchilarning xona(sektsiya)dagi mulkni, tozalik va tartib-intizomni saqlashini nazorat qiladi. Sardorlar Kengash qarorlariga asoslangan holda faoliyat olib boradi.

44. Kengash o'z faoliyatini «Talabalar kengashi» haqidagi Nizom asosida tashkil etadi va olib boradi.

45. quyidagi masalalar Kengash bilan kelishilgan holda hal etiladi:

- ma'muriyat tomonidan yashovchining bir xonadan ikkinchi xonaga ko'chirilishi;
- yashovchilarni rag'batlantirish yoki intizomiy choralar ko'rish.

### **IX. Talabalar turar joylarida tarbiyaviy ishlar**

46. Talabalar turar joyida tarbiyaviy ishlar institut faoliyatining ustuvor tarkibiy qismi sanalib, rektor rahbarligida tegishli bo'limlar, jamoat tashkilotlari hamkorligida amalga oshiriladi.

47. Talabalar turar joyida tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda shaxsan ma'naviy-ahloqiy tarbiya ishlari bo'yicha prorektor mas'ul sanaladi. U Talabalar turar joyi ma'muriyati, dekanatlar, kafedralar hamda professor-o'kituvchilar tarkibi va kasaba uyushmasi bilan hamkorlikda tarbiyaviy ishlarni boshqaradi.

48. Talabalar turar joyida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar institutning maxsus ishlab chiqilgan rejasi asosida turli davlat va jamoat tashkilotlarini jalb qilgan holda olib boriladi.

Talabalar turar joylarida badiiy va texnik ijodiy havaskor to'garaklar, sport va turistik sektsiyalar hamda qiziqishlar bo'yicha klublar, shuningdek, fan, san'at, adabiyot namoyandalari bilan uchrashuvlar, disputlar, tematik kechalar va bayram tadbirlari tashkil etiladi.

### **X. Talabalar turar joyida yashovchilarga ko'rsatiladigan xizmatlar**

49. Talabalar turar joyida vaqtincha foydalanilmay turgan xonalarda o'rnatilgan tartibda turli xil (pullik) xizmatlari tashkil etilishi mumkin.

50. Talabalar turar joyida quyidagi xonalar faoliyati yo'lga qo'yiladi:

- ma'naviyat va ma'rifat xonasi; o'quv va dars tayyorlash xonasi; kutubxona; dam olish xonasi (ota-onalar xonasi); gigiena xonasi; yuvinish xonasi; buyumlarni saqlash xonasi; oshxona; sport zali va boshqalar.

### **XI. Talabalar turar joylari holatini nazorat qilish**

51. Talabalar turar joylari holati institut rahbariyati va jamoat tashkilotlari tomonidan maxsus reja asosida o'rganib boriladi hamda uning natijalari Ilmiy kengashda muhokama etiladi.

52. Talabalar turar joylari faoliyati institutning tegishli prorektorlari tomonidan doimiy nazorat etib boriladi va o'z yo'nalishi bo'yicha vazifalarni amalga oshirish yuzasidan rektorga takliflar kiritadi.

53. Har bir Talabalar turar joyida bildirilgan mulohaza va fikrlarini yozish uchun qaydnoma daftari (1 nusxa, muhrlangan) bo‘lishi lozim.

54. Talabalar turar joylarida «Adolat qutisi» tashkil etiladi va yashovchilar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar har haftada bir marta o‘rganilib, muhokama qilinadi hamda tegishli chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

## **XII. Talabalar turar joylarini moliyalashtirish**

55. Talabalar turar joyi institutga ajratilgan mablag‘, byudjet, byudjetdan tashqari (to‘lov-kontrakt) tushadigan, tadbirkorlik asosida ishlab topilgan hamda talaba va aspirantlar istiqomat qilishlari uchun to‘lanadigan mablag‘lar hisobidan moliyalashtiriladi.

56. Talabalar turar joyi shtat birliklari amaldagi institutning shtat birliklari asosida belgilanadi.

## **XIII. Nizomga o‘zgartirish, qo‘shimchalar kiritish va bekor qilish**

57. Ushbu Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek kuchini yo‘qotgan deb topish Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi buyrug‘i bilan amalga oshiriladi.

## **TOSHKENT MOLIIYa INSTITUTI TALABALAR TURAR JOYIGA KIRISH-ChIQISH TARTIBI**

1. Talabalar turar joyiga kirish va chiqish talabalik guvohnomasi va maxsus ruxsatnoma asosida amalga oshiriladi.
2. Talabalar turar joyiga kirish yoki chiqishda ruxsatnoma talaba yoki o‘quvchilik guvohnomasi bilan birgalikda navbatchi eshikbonga hamda navbatchi-talaba va o‘quvchiga ko‘rsatilishi shart.
3. Talabalar turar joyida yashovchi talaba va o‘quvchilarga yozgi vaqtda kech soat 22.00 va qishki vaqtda kech soat 21.00 gacha Talabalar turar joyiga kirishga ruxsat beriladi. Darsdan bo‘sh vaqtlarda turli tashkilotlarda ishlaydigan talabalarning ro‘yxati Talabalar turar joyi boshqaruvi tomonidan tuziladi va tasdiqlab qo‘yiladi.
4. Talabalar turar joyiga kelgan mehmonlar, ota-onalar, qarindoshlar, do‘stlar va boshqa talabalarning kirish-chiqishiga faqat boshqaruv raisi yoki pedagog-tarbiyachi ruxsat berish mumkin.

5. Chetdan kelganlar haqidagi ma'lumotlar (kelish va ketish vaqti, pasport nomeri, xona raqami ko'rsatilgan holda) qaydnoma daftariga yozib qo'yiladi va ularning yotoqxonadan soat 20.00 gacha chiqib ketishi qat'iy nazorat ostida bo'lishi shart.

6. Talabalar turar joyi ichki tartib-qoidalarini, kirish-chiqish qoidasini buzgan Talabalar ogohlantiriladi hamda rasmiy qayd etiladi, agar bu holat yana qaytarilsa u Talabalar turar joyida yashash huquqidan mahrum etiladi.

7. Talabalar turar joyi eshikboni, xodimlar va yashovchilar atrofda shubhali kishilar va buyumlarni ko'rib yoki sezib qolganlarida zudlik bilan militsiya tayanch punktiga xabar berishlari lozim.

8. Talabalar turar joyi eshikboni tashqi va ichki telefon tarmog'i bilan ta'minlanishi shart. Uning stolida tez yordam, militsiya, yong'in xavfsizligi, rektor (direktor), prorektorlar (direktor o'rinbosarlari), fakultetlarning dekanlari, elektr, gaz tarmoqlarining telefon raqamlari hamda Talabalar turar joyi boshqaruvi raisining ish va uy telefon raqamlari bo'lishi shart.

## **TOSHKENT MOLIIYa INSTITUTI**

### **TALABALAR TURAR JOYLARIDA YaShOVChILAR AMAL QILADIGAN IChKI TARTIB-QOIDALAR**

1. Talaba va aspirantlarning Talabalar turar joylariga joylashishi order orqali amalga oshiriladi, order ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlari bo'yicha prorektor va kasaba uyushmasi ruxsati bilan beriladi.

2. Talaba va aspirantlar yashash davrida zarurat tug'lsa, belgilangan tartibda Talabalar turar joyining bir xonasidan ikkinchi xonasiga yoki bir Talabalar turar joyidan boshqasiga ko'chib o'tishi mumkin.

3. Talabalar turar joyida yashovchilar shaxsiy mulkdan foydalanishi maxsus qayd etish qog'ozi orqali amalga oshiriladi va ularni ehtiyotlash foydalanishga olgan shaxs zimmasiga yuklatiladi.

4. Talabalar navbatchilik jadvaliga binoan xonalarda, qavat va kirish joylariga navbatchilik qiladilar, dam olish joylarida namunali tozalikni ta'minlaydilar.

5. Gaz va elektr asboblaridan foydalanish qoidalariga qat'iy rioya qiladilar.

6. Talabalar turar joyidan uzoq muddatga ketayotib (dam olishga, amaliyotga) Talabalar turar joyi ma'muriyatini ikki kun oldin yozma ravishda ogohlantirib qo'yishlari kerak.

7. Kundalik ehtiyojga ega bo'lmagan katta hajmdagi shaxsiy va qimmatbaho buyumlarni Talabalar turar joyining buyumlar saqlash xonasiga topshirishlari kerak. Buyum saqlash xonasiga topshirilmagan buyumlar uchun Talabalar turar joyi ma'muriyati javobgar bo'lmaydi.

8. Talaba yashab turgan xonasi va boshqa umumiy foydalanish joylarini har doim toza, tartibli tutishi lozim.

9. Hamxonalar va Talabalar turar joyida yashovchilar bilan doimo samimiy, ahil munosabatda bo'lish kerak.

10. Talabalardan turar joyi va xonadagi mavjud hamma jihozlarni (shifoner, krovat, tumbochka, stol, stul va h.k.) namunali darajada tutish talab etiladi.

11. Umumiy foydalanish joylariga o'rnatilgan yoritgichlar, elektr va gaz plitalarini buzmaslik, yuvinish xonasi, oshxona hamda ma'naviyat va ma'rifat xonalaridan to'g'ri foydalanish lozim.

12. Elektr va gaz plitalaridan to'g'ri hamda tejamli foydalanish, qo'lbola elektr isitgich asboblaridan mutlaqo foydalanmaslik lozim.

13. Talabalar turar joyida o'tkaziladigan hasharlarda, tevarak-atroflarni ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlarida muntazam ravishda qatnashishlari lozim.

14. O'qishni bitirgan talabalar ikki hafta ichida yashab turgan xonalarini bo'shatishlari kerak